

## ARXITEKTURA SOHASINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Salomova Farangiz Laziz qizi

*Shahrisabz DPI o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki yosh avlodga umumjahon me'morchiligining ijtimoiy tuzimi, geografiyasi, tarixi, madaniyati haqida umumiy ma'lumotlar berish.*

**Kalit so'z va iboralar:** *Arxitektura, Me'mor, Qadimgi Misr, Qadimgi Yunon, inshoot, loyiha, konstruktiv element.*

**Аннотация:** *Цель данной статьи – предоставить молодому поколению общие сведения о социальной структуре, географии, истории и культуре мировой архитектуры.*

**Ключевые слова и фразы:** *Архитектура, Архитектор, Древний Египет, Древняя Греция, строительство, проект, конструктивный элемент.*

**Abstract:** *The purpose of this article is to provide the young generation with general information about the social structure, geography, history, and culture of world architecture.*

**Key words and phrases:** *Architecture, Architect, Ancient Egypt, Ancient Greece, construction, project, constructive element.*

### KIRISH

(Introduction). Qadimgi zamonlardan boshlab dunyo madaniyati tarixi arxitektura taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Insoniyat arxitekturaviy- qurilish faoliyatining boshlanishi poleolit davriga to'g'ri keladi va eng oddiy tosh qurollari yordamida odamlarning o'ziga uy joy qurishi bilan bog'liq. Yog'ochga boy joylarda konus-shakl va ikki tomonga og'ma tom shoxlardan yasalgan chaylalar keng tarqalgan. Arxitekturaning paydo bo'lishi so'ngi poleolit davriga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib qurilish jarayoni faqatgina texnik faoliyat bo'lmasdan, balki odamlarning ma'naviy talablarini ham qondirishga xizmat qiladi.

Neolit davrida tosh qurollari takomillashtirilishi bilan insoniyatning moddiy imkoniyatlari kengayadi. Bu davrga kelib yog'ochdan yasalgan uy joylar to'g'ri burchakli shaklni qabul qilib, devorlari ustunlar va ularga biriktirilgan shox-shabbalar o'rimidan iborat edi.

Yangi tosh davri-neolit davrida (eramizdan oldingi VI-II ming yillik) mehnat qurollari keng rivojlanishi bilan ibtidoiy jamoa a'zolari dehqonchilik va chorvadorlik bilan shug'ullana boshlashadi.

Neolit davrining so'ngi pallasida, ya'ni bronza davrida metallardan tayyorlangan har xil ish qurollari paydo bo'ldi. Xuddi shu davrda megalitik qurilmalar ham keng tarqaladi. Megalitik qurilmalar juda katta tosh bo'laklaridan qurilgan bo'lib, ular har xil diniy udumlar bilan bog'liq bo'lgan. Megalitik qurilmalar asosan uch turga bo'linadi: mengirlar, dolmenlar va kromlexlar.

Mengirlar - bu vertikal shaklda o'rnatilgan balandligi 20 metrli katta tosh

bo'laklaridir. Eng katta mengirlarning og'irligi qariyb 300 tonnagacha bo'lgan. Mengirlar biron-bir tarixiy hodisa sharafiga o'rnatilgan.

Dolmenlar - bu bir necha vertikal o'rnatilgan tosh va ularning usti gorizontaal tosh plitasi bilan yopilgan qurilma bo'lib, asosan, qabila boshqaruvchisi uchun qurilgan. Qabila boshlig'i o'limidan keyin shu yerda dafn etilib, dolmen maqbara vazifasini o'tagan.

Kromlexlar - megalitik qurilmalar ichida eng murakkab va kompozitsion jihatdan uyg'unlashgan inshootdir. Angliyaning Stounxendj degan joyidagi kromlex diametri 30 metr bo'lgan aylana bo'yicha qo'yib chiqilgan toshlar va uchi bir-biri bilan toshlar vositasida bog'langan inshootdir. Eng qadimgi quldorlik davlatlari Misr va Yaqin Sharqda vujudga keldi. Bu joylarda quldorlik davlatlari paydo bo'lishi uchun hosildor yerlarda sun'iy sug'orish yo'li bilan dehqonchilik rivojlanganligi sabab bo'ldi. Sun'iy sug'orish tizimi asosan podshohlar qo'lida bo'lib, shu orqali ular butun hosildor yerlarga ega edilar.

Misr quldorlik davlati asosan 4 davrdan iborat rivojlanish bosqichini bosib o'tgan:

1. Arxaika davri (eramizdan avvalgi 3200 — 2780-yillar).
2. Qadimgi podshohlik davri (eramizdan avvalgi 2780 – 2100-yillar).
3. O'rta podshohlik davri (eramizdan avvalgi 2100 – 1700-yillar).
4. Yangi podshohlik davri (eramizdan avvalgi 1700 – 712-yillar).

Qadimgi Misrda quldorlik davlatini Fir'avn boshqargan. Fir'avn lavozimi podshohlar sulolasi ahliga meros bo'lib o'tib kelgan. Qadimgi podshohlik davrining eng yirik yodgorligi – Gizadagi ehromlar kompleksi Xeops, Xefren va Mikerin ehromlaridan tashkil topgan va eramizdan oldingi 2900 – 2700-Yillarda qurilgan. Ehromlari ichida eng kattasi Xeops ehromi bo'lib, uning balandligi 147 Metr, kvadrat asosining bir tomoni uzunligi 230 metrni tashkil qiladi. Xeops piramidasi dunyodagi yetti mo'jizadan biri deb tan olingan. Darhaqiqat, u yaxlit va yetarli darajada mustahkam inshoot bo'lib, 2.300.000 ta tosh bloklaridan ishlagan. Har bir blok o'rtacha 2,5tonna og'irlikda bo'lgan. Piramidaning ichida bir nechta bir-biri bilan chalkash yo'llar bor bo'lib, ulardan biri shohning jasadini qo'yilgan xonaga olib boradi. Piramida o'lchovlarining katta bo'lishiga qaramasdan, ulkan inshoot shimol, janub, sharq va g'arb tomonlarga aniq yo'naltirilgan. Xefren ehromining balandligi Xeopsga nisbatan 8 metr pastroq, ya'ni 139 metr bo'lib, Mikerin ehromining balandligi esa Xeopsga nisbatan qariyb 2 marta pastroqdir. Piramidalar kompleksi yaqinida toshdan o'yilgan sfinks — tanasi odamning shakli, kallasi esa arslon shaklida ishlangan, balandligi 20 metrni tashkil qiluvchi haykal joylashgan.

O'rta podshohlik davriga kelib, ulkan piramidalar qurilishi to'xtaydi. Buning asosiy sabablaridan biri fir'avnlarning siyosiy boshqaruvining sustlashishi edi. Bu davrga kelib ibodatxonalar qurilishi keng tarqaladi. Eramizdan avvalgi 2400-yilning boshlarida Misr davlati inqirozga yuz tutadi. Oqibatda mamlakat bir necha yarim mustaqil viloyatlarga bo'linadi. Monumental arxitekturada piramidalar qurilishi o'rta podshohlik davrida ham davom ettiriladi. Ammo shakl jihatidan ham, masshtabi jihatidan ham Qadimgi podshohlik davridagi piramidalardan ancha kichik va kam dabdabali bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Leterature revier). Me'morlik (Arxitektura) — foydalanishdagi maqsad va vazifalar, zamonaviy texnik imkoniyatlar va jamiyatning estetik qarashlaridan kelib chiqib bino va inshootlarni loyihalash va qurish san'ati. Me'mor inson

hayoti va faoliyati uchun zarur fazoviy muhitni tafakkur kuchi bilan avval ijodiy loyihada rejalab, uni amalga yuksak did va mahorat bilan bunyod etadi. Me'morlik asarlari qatoriga turli-tuman binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, shaharlar, ulardagi monumentlar, usti ochiq va yopiq inshootlar kiradi. Aholi yashaydigan manzillar — qishloq, shahar va shaharchalarni rejalab tashkil etish bilan me'morlikning jamlovchi, eng murakkab sohasi — shaharsozlik shug'ullanadi. Tabiat manzaralari bilan bog'liq muhitni bunyod etish, bog'lar yaratish sohasi bog'sozlik (bog'-park) san'atidir.

Me'morlik asari amaliy xizmati, vazifasidan tashqari ma'lum g'oyaviy-badiiy mazmunni, o'z davrini ifodalovchi me'moriy qiyofa — obrazni mujassam etadi, moddiy madaniyatning eng mahobatli va eng ko'p harajatli, tarkibiy qismini tashkil qiladi; ayni vaqtda mahobatli san'at sifatida namoyon bo'ladi. Me'morlik boshqa turli xil san'at namunalarini (haykaltaroshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik kabi) o'zida mujassam etishi bilan san'atlar onasiga, fazoviy shakllar o'zaro mutanosib, hamohang bo'lishini nazarda tutib me'moriy qadimiyat yodgorliklari toshda qotib qolgan musiqaga o'xshatiladi. Binoning mustahkam, inson uchun kerak va go'zal bo'lishi me'morlikning ilk taraqqiyoti davridan hozirgacha asosiy omili hisoblanadi. Qadimgi dunyo tarixida mashhur bo'lgan yetti mo'jizaning hammasi inson dahosi bilan yaratilgan me'moriy san'at asarlari bo'lgani bejiz emas. Qadimgi Yunon va Rim sivilizatsiyalari antik dunyo deb tan olinib, eramizdan avvalgi XII - VIII asrlardan eramizning IV - V asrlarigacha mavjud bo'lgan.

Qadimgi Yunon arxitekturasi uch davrdan iborat:


1. Arxaika davri (eramizdan avvalgi VIII - V asrlar).
2. Klassika davri (eramizdan avvalgi 480 - 320- yillar)
3. Ellinizm davri (eramizdan avvalgi 320-yil - eramizning I asrigacha).

Qadimgi Yunon Bolqon yarim orolining janubiy qismida joylashgan bo'lib, alohida va mustaqil shaharlardan tashkil topgan edi. Yunon polislari dunyo tarixida birinchi demokratik respublikalar edi, chunki barcha fuqarolar bir xil huquqqa ega edi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida Adabiyotlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, miya hujumi metodlaridan keng foydalanilgan. Qadimgi Yunoniston geometriya, mexanika, statika kabi fanlarning vatani bo'lib, bu fanlar asosida injenerlik, ayniqsa, qurilish injenerligi rivojlanadi. Qurilish injenerligi yutuqlari shaharlar, ko'priklar, to'g'onlar va boshqa inshootlar qurilishida keng qo'llaniladi. Qurilishda asosan xom va pishiq g'isht, tabiiy tosh qo'llanilgan. Bino va inshootlar yopilmasi asosan yog'ochdan bajarilgan. Qadimgi Yunon arxitekturasida ustunli konstruksiyalardan foydalanilgan.

Har bir bino yoki inshootni qurish uchun mahum vazirlikning yoki shahar hokimining qarori asos bo'ladi. Qurilish oldindan tasdiqlangan shahar yoki aholi punkting bosh rejasi asosida amalga oshiriladi. Loyihalar ishlarini boshlash uchun ilk hujjat loyihalashga topshiriqdir. Loyihalashga topshiriqda quyidagi malumotlar bo'lishi shart: loyihalash uchun asos; bosh loyihalovchi (genproyektirovshik); bosh quruvchi (genpodradchik); loyihalash bosqichi; qurilishning xususiy sharoitlarini ko'rsatuvchi ilk ma'lumotlar; binoning tipi; binoning konstruktiv yechimiga, muhandis uskunalariga qo'yilgan taiablar; uning asosiy texnik - iqtisod ko'rsatkichlari; qurilishning boshlanish va tugallanish vaqti; atrofni

obodonlashtirishga qo'yilgan talablar va boshqalar. Loyihani hujjat sifatida ishlash (loyiha - smeta hujjat) bosqichlarga bo'linadi. Hozirgi kunda loyihalash bir (ishchi loyiha) yoki ikki bosqichda (loyiha va ishchi hujjatlar ishlab chiqiladi) amalga oshiriladi. Bir bosqichli loyihalash texnik jihatdan sodda va qiyin bo'lmagan binolar, inshootlar, korxonalar va obyektlar uchun qo'llaniladi. Bu tipdagi binolar tipovoy yoki qaytadan ishlatiladigan loyihalar asosida quriladi. Murakkab obyektlar ikki bosqichda loyihalanadi. Ikki bosqichli loyihalashning birinchi bosqichida tushuntirish xati va asosiy chizmalar (situatsiyaviy reja M 1:5000 ...1:10000; bosh reja M 1:500 yoki 1:1000; qavat rejalari: fasadlar; qirgimlar; asosiy xonalarning intererlari: uskuna va mebellari; ko'rsatilgan qavat rejalari; injenerlik uskunalarning avtomatikasi va tuzilish sxemalari; injenerlik quvurlari trassasining sxemasi; aloqa va signalizatsiyani tashkil etish sxemalari; axlat chiqarib tashlash sxemalari; qurilishni tashkil etish smeta hujjatlari va hokazo) ishlab chiqiladi. Hozirgi zamon industrial qurilishini binolarning konstruktiv elementlari va hajm-reja yechimlarini, ma'lum bir koordinatsiya qoidalariga bo'ysungan holda. yagona modul tizimi asosida olib borish mumkin. Muvofiqlashtirish uchun asos bo'lib yagona modul sistemasi (YaMS) xizmat qiladi. YaMS bilan binoning hamma asosiy o'lchamlari qo'yilib chiqiladi. Asosiy modul 100 mm ga teng; kattalashtirilgan modullar esa 60 M, 30M, 15M, 12M, 6 M. 3 M; kasr modullari - 1/2 M, 1/5 M, 1/10 M, 1/20 M, 1/50 M, 1/100 M



1-rasm Qurilish proyekti

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Binoning g'oyasini me'mor — loyiha muallifi yaratadi. Ammo g'oyaniy loyiha shakliga keltirish juda murakkab bo'lib, bu jarayonga juda ko'p mutaxassislar qatnashadilar. Bu protsessning xususiyati shundaki, u ham ijodni, ham mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Hozirgi kunda qurilishda kechayotgan texnik inqilob loyihalash usullarini zamonaviylashtirishni ham talab etadi.

Unifikatsiya – ko'p turdagi tipavoy konstruksiyalarni va ko'laminig qismlarini son jihatdan ko'p bo'lmagan, formasi va o'lchamlari bilan dolzarbda bo'lgan ma'lum tiplarga keltirishni maqsad qilib qo'yadi. Har xil tipavoy loyihalarda binoning konstruktiv qismlarini o'zgartirmasdan turib binoning ma'lum konstruktiv qismlarini unifikatsiyalash, loyihani asosiy qismlarini o'zgartirmasdan turib binoning ma'lum konstruktiv elementini boshqa shunga o'xshash konstruksiya bilan almashtirishga imkoniyat beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Shunday qilib, arxitektura sohasining rivojlanish hozirgi kunda balanddan baland imoratlarning qurilishiga, ko'rkam binolarning qad ko'tarishiga bevosita sababchi desak adashmaymiz:

- birinchidan, binolarning joylashuv nuqtasini aniqlab unga qanchalik balandlikda imorat qurish imkoniyatini aniqlaydi;
- ikkinchidan, loyihalash bo'yicha ishlarni amalga oshiradilar, qanday joylashuvi, shakli, o'lchamlari haqida ma'lumotga ega qiladi;
- uchunchidan, aniq natijani kafolatlab, ishning sifatini ko'rsatadi;
- to'rtinchidan, zamonaviy qurilishlar bilan tanishadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi. Toshkent, Adolat, 2004
2. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzayev "Me'morchilik" darslik Tafakkur nashriyoti T 2010
3. Fir'avnlr mamlakati. H. A. Salahutdinov. 1992 y.
4. S.A.Masharipova "San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi Arxitektura tarixi" o'quv qo'llanma T 2013
5. San'at tarihi. N. Abdullaev. 1988 y
6. X.M.Ubaydullayev, M.M.Inog'omova "Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari" darslik Voris nashriyoti T 2009
7. Vaxidov M.M.. Mirzayev Sh.R. Fuqarolik binolarning konstruksiyalari. Toshkent, O'z. Res. O va O'MTV, 2003
8. Farangiz Laziz kizi, Z.Matniyazov "Methods of Using Ethnographic Elements in Furniture Design" European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Vol. 02 Issue 05 (2022): EJINE
9. Salomova Farangiz Laziz kizi, Z.Matniyazov "THE ROLE OF FURNITURE IN HUMAN LIFE" "Экономика и социум" №10(89) 2021.UDK- 747.012